XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI KENGASHINING QARORI

Uzuntumani,O‘zbekistonko‘chasi 7-uy. tel.: (+99876)44-73-545, uzun.t@exat.uz

2022 - yil 20 - oktabr VI-49-148-8-118-K/22 Uzun tuman hokimligi

Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining 2021-yil 29-mart kunidagi 175/27-06-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 18-apreldagi 08-03021-sonli xati, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli ekspert xulosasi, Uzun tumani Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining taklifi, Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining 2021-yil 29-mart kunidagi 175/27-06-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 18-apreldagi 08-03021-sonli xati hamda Uzun tumani Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 1-fevraldagi 13-01/6-sonli “Oq tumshuq” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini “Nurafshon” mahalla fuqarolar yig‘ini nomiga o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining 2021-yil 29-mart kunidagi 175/27-06-sonli qaroridagi “aholi punkti” degan so‘zlar “mahalla fuqarolar yig‘ini” deb o‘qilsin.

3. Qarorning qolgan qismi o‘zgarishsiz qoldirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Tashanov), Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Ismatov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.B.Tursunov**